

OMONAT

Abdulloh ibn Abdurrahmon al-Jibrin

Tarjimon: Abdulloh Abdurrahmon o'g'li

MUQADDIMA

Alloh subhanahu va ta'aloga hamdu sanolar aytamiz. Undan bizni mag'firat qilishini so'raymiz. Guvohlik beramanki. Allohdan o'zga iloh yo'q. U yolg'iz va sheriksiz Zotdir. Muhammad sollallohu alayhi va sallam Uning quli va elchisidir. U kishiga, ahli va ashoblariga Allohning rahmati hamda salomi yog'ilsin.

Ammo ba'd:

Albatta omonat haqida so'zlamoqlik katta ahamiyatga ega. chunki u bir tomondan Alloh va banda o'rtasidagi narsaga, ikkinchi tomondan banda bilan banda o'rtasidagi narsaga aloqador. Mazkur omonatni ado etishda bandaga madad beradigan sabablarni bayon etamiz. Allohdan amallarimizni xolis O'zining yuzi uchun qilishligini so'raymiz. Payg'ambarimiz Muhammad ibn Abdullohga, u zotning muborak oilalari va ashoblariga Allohning salotu salomi bo'lsin.

«OMONAT» DEGANDA NIMA TUSHUNILADI?

Umuman omonat deyilganida ibodat koʻzda tutiladi. Buni Alloh subhanahu va taʼalo quyidagi oyati karimada marhamat qilgan:

«Albatta Biz bu omonatni (yaʼni shariatni islomiyadagi toat-ibodatlarni) osmonlarga, erga va togʻu toshlarga koʻndalang qilgan edik, ular uni koʻtarishdan bosh tortdilar va undan qoʻrqdilar. Inson esa uni oʻz zimmasiga oldi. Darhaqiqat u (oʻziga) zulm qilguvchi va nodon edi».¹

Alloh ushbu omonatni Oʻzining eng ulkan mahluqotlariga; Keng osmonlarga, ulkan Erga va ulugʻvor azamat togʻlarga koʻndalang qildi va bu omonatni zimmalariga olmadilar. Vaholanki bu maxluqotlar Alloh amri qarshisida boʻyin egadilar, oʻzlariga yuklatilgan narsadan boʻyin tovlamaydilar. Alloh subhanahu va taʼalo bu maxluqotlarining oʻz Parvardigorlariga muteʼ va buyurilgan ishlarida itoatkor-musaxxar ekanliklarini aytgan:

«Soʻngra tutun holidagi osmonga koʻtarilib, unga va Erga: «(Mening amri-farmonimga) ixtiyorin yoki majburan kelinglar!», degan edi, ular: «Oʻz ixtiyorimiz bilan keldik»- dedilar».²

Demak, osmonlaru er oʻz Parvardigoriga toʻliq taslim boʻlgan va ular nimaga buyurilsalar, jomid (hayotsiz, jonsiz) maxluqot boʻlsalar-da umuman itoatdan tashqari chiqmaydilar. Alloh amrini Uning xohish-irodasiga muvofiq ravishda barcha narsada ado qilishadi. Agar Alloh ularga harakatni yoki harakatsizlikni buyuradigan boʻlsa hech toʻxtalmasdan itoat etadilar. Ular Alloh amriga hamisha boʻysunuvchidirlar.

«Biron narsani (yaratishni) iroda qilgan vaqtida Uning ishi faqatgina «Boʻl», demoqligidir».³

Alloh osmonlaru erni va boshqa butun mavjudotga idrok va maʼrifat bilish quvvatini berdi. Ular nimaga buyurilganliklarini his qiladilar. Agar amr etilsa, sajdag bosh qoʻyadilar, Alloh subhanahu va taʼaloga tasbeh aytadilar.

«Etti osmon, er va ulardagi bor jonzot (Allohn) poklar».⁴

¹ «Ahzob», 72-oyat.

² «Fussilat», 11-oyat.

³ «Yosin», 82-oyat.

⁴ «Isro», 44-oyat.

«(Ey Muhammad sollallohu alayhi va sallam), siz osmonlardagi va erdagi bor jonzot, quyosh, oy, yulduzlar, tog'lar, dîv-daraxtlar va (barcha) jonivorlar hamda ko'pdan-ko'p insonlar (yolg'iz) Allohga sajda qilishini ko'rmdingizmi?».⁵

Yeru osmonlarga barcha narsalar; tog'lar, daraxtlar, yulduzlar, jonzotlar va boshqa jamodat (jonsiz narsa)lar Allohga sajda qiladi. Alloh ularda o'zlariga munosib his tuyg'u va idrokni yaratgan. Ular ham sajda qiladilar, qo'rqadilar.

«... Zero shunday toshlar borki, ulardan daryolar otilib chiqadi, yana shundaylari borki, yorilib, ichidan suv chiqadi, yana shundaylari borki, Allohdan qo'rqqanidan pastga qulaydi...».⁶

Tog'lar ham Alloh ta'alodan qo'rqib turadi. Oyati karimada aytilishicha:

«Agar Biz ushbu Qur'onni biron tog'ga nozil qilganimizda, albatta siz u (tog')ni Allohning qo'rqquvidan egilib yorilib ketgan holida ko'rgan bo'lur edingiz».⁷

Tog'lar va boshqa mavjudotlar Allohdan shunchalik qo'rqishlariga, unga shunchalar itoatkor bo'lishlariga qaramasdan mazkur îmonatni o'z zimmasidan soqet qildilar. Uni o'zlariga og'ir deb bildilar va ko'tarishdan bosh tortdilar. Inson o'zining zaifligiga qaramasdan uni o'z zimmasiga oldi!

Endi bu omonatni ado etmog'i shart. Agarda inson bu omonatga xiyonat qilsa va beparvo bo'lsa Alloh huzurida javob beradi. Omonatni tashlab qo'ygani va unga xiyonat qilgani uchun azobga (mustahiq) duchor bo'ladi.

Xo'sh, endi biz bir-birimizga savol berib ko'raylik-chi:

Inson zimmasiga olgan bu omonat nima o'zi?!

OMONAT - MO'MINLARNING YO'QOTGAN NARSASI

Alloh bandalarini mo'minlar deb nomladi. Mo'min mana shu omonatga xiyonat qilmaydigan, unga amal qiladigan va uni mahkam ushlaydigan kishidir.

Omonat amnun-ya'ni omonlik, behavotirlik yoki iymon degan so'zdan olingan. Omonatga xiyonat qilmaydigan kishi yoki mo'taman ya'ni omonatdor deyiladi. shu sababli u omonatni haqiqiy ado etganligi uchun omonat va iymon ahlidan deb sifatlanadi. Alloh ñubhanahu va ta'alo aytadi:

⁵ «Haj», 18-oyat.

⁶ «Baqara», 74-oyat.

⁷ «Xashr», 21-oyat.

«Ular o'zlariga ishonilgan omonatlarga va (o'zgalarga) bergan ahdu paymonlariga rioya qiluvchi kishilardir».⁸

Bu erda omonat, bandani zimmasidagi Allohni haqlarini va bandalarni haqlarini ham o'z ichiga oladi. Alloh mo'minlarni rioya qiluvchilar ya'ni omonatni haqiqiy ado etuvchilar deb sifatlatadi. Agar ular mana shu sifatga ega bo'lsalar. Alloh O'zining quyidagi oyatida zikr qilgan najot topuvchi bandalardan bo'ladilar.

«Darhaqiqat mo'minlar najot topdilar».⁹

Inson har qanday holatda ham bu omonatni ado qilishligi kerak. chunki u Alloh buyurgan haqlardandir. Omonat quyidagi oyatda zikr etilgan ahd-paymondur:

«Ular o'zlariga ishonilgan omonatlarga va (o'zgalarga) bergan ahdu paymonlariga rioya qiluvchi kishilardir».¹⁰

Bu ahdu paymonlarga insonning Robbisi bilan qilgan ahdi ham, o'zga insonlar bilan qilgan ahd-paymonlari ham kirib ketadi. Alloh ta'alo ahdni quyidagi so'zi bilan yanada ta'kidliroq qilgan:

«Albatta ahd-paymon (*Qiyomat kuni*) mas'ul so'raladigan, bo'linadigan ishdir».¹¹

ya'ni uning vafosi haqida so'raladi. Lekin, ahdlarning eng muhimi Allohga berilgan ahddir.

«Ahd-paymon bergan vaqtlaringizda, Allohga bergan ahdingizga vafod qilingiz!».¹²

Insonlarni zimmasiga yuklatilgan eng ulug' omonat bu Allohga berilgan ahddir. Haqiqiy mo'min barcha holatda ushbu omonatga rioya qiladi. Ammo iymoni zaif kishilarni bu omonatga engil-elpi qarayotganini, uni to'la ado qilmayotganini ko'rasiz. Bu aslida bandaning iymonidagi nuqson-kamchilikdir. Allohning ham, insonlarning ham haqlariga omonatdor bo'lgan, unga haqiqatan ich-ichidan bog'langan va qanday lozim bo'lsa xuddi shunday bu omonatni ado

⁸ «Mo'minlar», 8-oyat.

⁹ «Mo'minlar», 1-oyat.

¹⁰ «Mo'minlar», 8-oyat.

¹¹ «Isro», 34-oyat.

¹² «Nahl», 91-oyat.

qilgan ishonchli, muslim kishi bo'lgani uchun Alloh bandasini mo'min deb atadi. Mana shu odam mo'min va amindir.

INSON VA PARVARDIGOR O'RTASIDAGI OMONAT

Omonat Alloh ta'alo bizga yuklagan ibodat va shariat (qonun)lardir. Bu yuk (taklif) naqadar og'ir!

Mana shu omonatni biz qachonki haqiqiy ado qilsak ajr va ulug' savoblarga etishishimizni bilgan vaqtimizda bu ishga kirishmog'imiz lozim, shart. Omonatni ado qilishda orqaga surish, dangasalik qilish mumkin emas.

Ana shu ibodatlar, shariatlar omonatdir. Har bir inson o'zi bilan Parvardigori o'rtasida mazkur huquqlarga omonatdordir. Uni yolg'iz Robbisigina biladi. Mazkur ibodatlarni sizga omonat qilib topshirgan Parvardigoringizdan o'zga hech kim kuzatib turmaydi.

Siz tahorat va namozga omonatdorsiz. Zikrlarga hamda namozdagi qiroatlarga omonatdorsiz.

Siz ro'zaga omonatdorsiz. Moliy haqlar, zakot va kafforatlarga omonatdorsiz. Alloh sizga harom qilgan ma'siyatlardan chetlanishga va gunohlarni tark etishga omonatdorsiz.

Bularning barchasi sizning qalbingizga, e'tiqodingizga tashlab qo'yilgan. Uni ado qilgan-qilmaganingizni Allohdan o'zga hech kim bilmaydi.

Lekin, siz ich-ichingizda Robbingizdan hech narsa maxfiy qolmasligini bilib turasiz.

Agar siz tahoratsiz namoz o'qisangiz ham hech kim sezmaydi. Lekin Alloh sizni ko'rib turadi. Tahorat siz va Parvardigoringiz o'rtasida omonatdir. Siz namoz uchun saf oling. Odamlar bilan egilib turaverding-da, tasbeh aytmang, qiroat qilmang, zikrlarni ado etmang, maxfiy o'qiladigan namoz vojibotlari va ruknlarini birortasini bajarmang. Sizning bu ishingizga biron kishi sezmasa ham Alloh ta'alo bilib turadi. Namozdagi zikrlar siz va Parvardigoringiz o'rtasidagi omonatdir.

Agar siz Ramazonda yashirinch biron narsa eb olsangiz ham hech kim sezmasligi mumkin. chunki odamlar sizni doim kuzatib yurishmaydi. Lekin Alloh barcha harakatingizni ko'rib turadi. Ro'za ham siz va Parvardigoringiz o'rtasidagi omonatdir.

Alloh vojib etgan zakot va shu kabi haqlarda xiyonatga qo'l ursangiz ham, maxfiy yashirilgan molingiz zakotini bermasangiz ham Robbingizdan o'zga hech kim sezmaydi. Kishilar faqat zohirni (ko'rinib turganni) biladilar xalos. Zakot ham siz va Parvardigoringiz o'rtasidagi moliy omonatdir. shuningdek xilvatda ma'siyatu gunohlar ichiga g'arq bo'lsangiz ham Allohdan o'zga hech kim bilmaydi. Masalan siz kishilar haqini eb ketganingizda ham biron kishi sezmaydi. Agar siz ichingizda shak-shubha, shirk, kufr yoki biron vasvasani saqlab yurgan bo'lsangiz ham bu Alloh bilan sizning o'rtangizdagi narsa. Odamlar buni faqat o'zingiz aytasangizgina biladi. Alloh sizni mana shunga ham omonatdor qildi.

Demak omonat, Alloh insonlarga farz qilgan barcha ibodatlarni o'z ichiga olar ekan. Biz yuqorida faqat ba'zi misollarni keltirdik halos. Ularni to'liq sanab o'tganimiz yo'q. Amallarda ixlos bo'lishi ham omonatdir. Bu banda rioya qilishi vojib bo'lgan eng muhim omonatlardan -Masalan agar birov namoz, haj, jihod yoki amri ma'ruf nahiy munkar qilmoqchi bo'lsa va buni odamlar ko'z o'ngida qilib yursa u amallarining zohiriga qarab maqtaladi. Kishilar uni solih amallarni qilganligi uchun yaxshi-solih kishi deb biladilar. Lekin u ichkarisida shak-shubha, riyo-sum'a (odamlar eshitishi uchun qilish), maqtov-olqish yoki boshqa shu kabi narsalar umidida bu amallarni qiladigan bo'lsa, uning butun amali botil. Buni ham yolg'iz Parvardigordan boshqa hech kim bilmaydi.

Ixlos omonatdor. Uni riyo buzadi. shuningdek ibodat, amalining kechiktirilishi yoki shartlarining buzilishi bilan botil bo'ladi. Insonlar o'zlari va Alloh o'rtasidagi narsada Uning rioyasini qilishlari, Undan qo'rqishlari uchun Alloh ta'alo bandalariga ularni doim ko'rib-bilib turishini eslatdi. Garchi inson holi qolsa-da, biron lahza ham Parvardigordan g'oib yashirin bo'la olmasligini his qiladi. shuning uchun Alloh ta'alo insonga uni ko'rib-bilib turishini ta'kidlash uslubida eslatdi:

«U sizni o'zingiz (namoz uchun) turayotgan vaqtingizda ham, sajda qiluvchilar (namoz o'quvchilar) orasida (imom bo'lgan holingizda namoz rukunlarini biridan ikkinchisiga) ko'chayotgan (vaqtingizda ham) ko'rib turar. shak-shubhasiz U eshitguvchi, bilguvchi zotdir».¹³

Go'yo U insonga aytayapti-ki: Ey bandam! Sen o'zing va Parvardigoring o'rtasidagi narsalarda mazkur haqlarni ado qilishga ma'mur-buyurilgansan. Sen yolg'iz Allohdan qo'rqqin. Xilvatda ham o'zingni yolg'iz deb hisoblama. Sen

¹³ «shuaro», 218-220-oyatlar.

Parvardigoring nazarida turibsan. shak-shubhasiz Robbingiz siru oshkor ishlarigizni bilguvchi Zotdir.

«Aniqki, insonni Biz yaratganmiz, (demak) uning nafsi vasvasa qiladigan (ya'ni ko'nglidan o'tadigan barcha) narsalarni ham bilurmiz. Biz unga jon tomiridan ham yaqinroqäëðmiz».¹⁴

Inson ko'ngli nimalarni vasvasa qilishini, qalbidan kechgan narsalarni tili chiqargan so'zlarni Alloh ta'alo biladi. Robbingizdan hech bir sir maxfiy qolmaydi.

yaratgan zotning juda yaqinligini, Uning barcha narsalarni ko'rib-bilib turishini his qilgan insonni xuddi mana shu tuyg'usi Robbisi unga omonat qo'ygan haqlarni ado etishga undaydi. U yolg'iz Allohdan qo'rqadi. Bandalarning hech biridan qo'rqmaydi.

Ammo agar buning aksi bo'ladigan bo'lsa, u ñionatni Alloh uchun emas odamlar uchun ado etgan bo'ladi.

Omonat ado qilishlikda inson doimo Robbisidan qo'rqib turmog'i lozim. Zero bu omonatni unga yuklagan ham va shu xususida uni hisob-kitob qilib ajru savob beradigan ham yolg'iz Alloh ekanligini u biladi. Xuddi Alloh uni bilgani kabi.

«(Axir) yaratgan Zot (O'zi yo'qdan bor qilgan narsalarni) bilmasmi?! U Mehribon va (har narsadan) xabardor Zotdir».¹⁵

Alloh qanday qilib O'zi yaratgan insonni bilmasin?! Uning a'zolarini joylashtirgan, unga qalb ato etgan va mana shu vasvasalarni yuborgan zot axir Uning O'zi-ku!

Qanday qilib uni bilmasin! Alloh barcha narsani, eng maxfiy sirlarni ham bilguvchi Zotdir!

«Zero U sirni ham, eng maxfiy narsalarni ham bilur».¹⁶

Mazkur dalillar insonni elkasidagi omonatni ado etishga majbur qiladi. Alloh ta'alo bandasini doim ko'rib-bilib turishini uning o'ziga juda ko'p eslatdi:

«(Ey Muhammad sollallohu alayhi va sallam) siz qanday ish (bilan) mashg'ul bo'lmang va u (ish) haqida Qur'ondan biron oyat o'qimang, (ey insonlar) sizlar

¹⁴ «Qof», 16-oyat.

¹⁵ «Mulk», 14-oyat.

¹⁶ «Toha», 7-oyat.

qanday amalni qilmanglar, albatta Biz sizlarning ustingizda guvoh bo'lurmiz».¹⁷

«shak-shubhasiz Men sizlar bilan birgaman-eshitib, ko'rib tururman».¹⁸

Inson Allohning unga yaqinligini, birgaligini esga olishi insonni Uning roziligini maqsad qilib sirru oshkor ishlarda, kishilar biladigan yoki bilmaydigan narsalarni haqiqiy adl etishga undaydi.

Alloh ta'alo bandasiga Kiroman kotibinlarni (ulug' yozuvchilar) ham biriktirib qo'ygan. Ular maloikalardir. Alloh ta'alo aytadi:

«U biron so'zni talaffuz qilmas magar (talaffuz qilsa) uning oldida hoziru nozir bo'lgan bir kuzatuvchi (farishta u so'zni yozib olur)».¹⁹

Ular insonning har bir harakati, so'zi va fe'lini yozib boruvchi ikki farishtadir. Alloh ta'alo ularga hatto qalb amalini ham bildirdi. chunki qalbning ham hech kim bilmaydigan amallari bordir. Kishining qalbida nima borligini, ixlosmi, shirkmi, hasadmi yoki musulmonlarga muhabbatli Allohdan o'zga hech kim bila olmaydi. Qalb amallari omonatdir. Alloh ta'alo maloikalarini qalb amallarini ham biluvchi qildi.

«Holbuki, shak-shubhasiz sizlarning ustingizda (qilgan har bir amalingizni) yod olib, yozib turuvchi ulug' (farishta)lar bordir. Ular sizlar qilayotgan ishlarni bilurlar».²⁰

Ish degan so'zi bu erda badan ishini ham qalb ishini ham o'z ichiga oladi. Banda o'zi bilan Robbisi o'rtasidagi ishlarida ham, o'zi bilan o'zgalar o'rtasidagi ishlarida ham omonatga rioya qilish kerak.

INSONNING O'ZI VA O'ZGALAR O'RTASIDAGI NARSALARDA

OMONAT

Bu omonat xoh mol xoh boshqa narsa bo'lsin insonlarning sizga topshirgan narsalarini va ularning haqlariga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Mashhur hadisda aytilganidek xiyonat munofiqlikning eng katta belgilaridandir.

«Munofiqling alomati uchta bo'ladi; gapirsa yolg'on gapiradi, va'da bersa vafu qilmaydi, omonat qo'yilsa xiyonat qiladi».²¹

¹⁷ «yunus», 61-oyat.

¹⁸ «Toha», 46-oyat.

¹⁹ «Qof», 18-oyat.

²⁰ «Infitor», 10-12-oyatlar.

Omonatga xiyonat etishlik munofiqlik alomati deyildi. ya'ni agar unga birov omonat qo'ysa, omonatdorlik qilmaydi, balki unga omonat qo'yilgan haqlarga xiyonat qiladi.

«Agar bir-birlaringizga omonat qo'ysangiz îmonat qo'yilgan kishi omonatni ado qilsin va Parvardigori-Allohdan qo'rqsin!».²²

Ba'zilar sizga ishongani va siz haqingizda yaxshi fikrda bo'lgani uchun o'z haqini berib qo'yayotganida guvoh chaqirmaydi, sizdan vasiqa-ishonch qog'ozi olmaydi. Bu kishining haqqiga rioya etishingiz va unga xiyonat qilib qo'yishdan juda-juda ehtiyot bo'lishingiz lozim.

Agar bir kishi sizga qarz bersa va u sizga ishonsa, guvoh chaqirmasa, qarzni yozmasa, bu omonatni mazkur oyatdagi omonat deb biling:

«Agar bir-birlaringizga omonat qo'ysangiz...».

ya'ni agar unga molini, qarzni yoki shunga o'xshash biron narsani omonat qo'yadigan bo'lsa, omonatdor bu omonatni o'z egasiga salomat etkazsin. U qo'ydagi oyatda ham zikr etilgan:

«Albatta, Alloh sizlarni omonatlarini o'z egalariga topshirishga buyuradi».²³

Aytishlaricha bu oyat Ka'ba kaliti haqida nozil bo'lgan ekan. Nabi' sollallohu alayhi va sallam Ka'ba kalitini Usmon ibn Talhadan olganlarida nozil etilgan. Ka'bani hijobati (Ka'ba po'shni yangilab turish) Banu Abdud-Dor qo'lida edi. Usmon ibn Talha mana shu qabiladan edi. Makka fath etilganida Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam Usmondan kalitni talab qildilar. Usmon «Omonatgami?»- deganida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam «Ha» deb javob berdilar. Kalit Rasululloh qo'liga o'tgach Abbos uni Payg'ambarimizdan o'ziga berishlarini so'radi:

«Uni menga bering. Toki siqoyat ham, sadonat (hojilarga suv-ovqat berish, Ka'ba xizmati) ham menda bo'lsin». shunda Alloh yuqoridagi oyati karimani nozil qildi. chunki Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uni Banu Abdud-Dordan omonatga olgan edilar. Alloh ta'alo bu omonatni egasiga qaytarib berishni buyurdi. chunki Banu Abdud-Dar Ka'ba sadonati (xizmati), hijobati va siqoyatiga boshqalardan ko'ra xaqliroq edi.

²¹ Buxoriy va Muslim rivoyati.

²² «Baqara», 283-oyat.

²³ «Niso», 58-oyat.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ularga omonatni qaytardilar. Oyati garchi mana shu hodisaga xos tushgan bo'lsa-da u barcha omonatlarga umumiydir. chunki sabab xususiy emas, lafzning umumiy ekanligi e'tiborga olinadi. Har qalay insonlar o'rtasidagi narsalarda omonatlar ko'p. Bunga sir-asrorlar, molu davlat ham kiradi. Agar birov ichidagi sirni yoki o'zi bilan ahli orasidagi gapni sizga omonat qilib aytga va uni yoyishdan sizni qaytarsa, siz bu xabarni-sirni umuman tashqariga chiqarmang. chunki bu omonat. Haligi kishi sizga ishondi, bu sirni hech qachon ochmasligingizdan xotirjam bo'ldi va xuddi shu bilan uni sizga omonat qildi. Unga xiyonat qilib qo'yman. Sizning omonat qo'ygan siringizni ochib yuborgan kishiga siz ham xiyonat bilan javob bermang. Bu mumkin emas. Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan quyidagi mazmundagi hadis rivoyat etilgan:

*«Senga omonat qo'yganning omonatini ado et, senga xiyonat qilganga xiyonat qilma».*²⁴

Birov sizga molini qo'yib ketadi yoki qarz beradi-da guvohlarni chaqirmaydi vasiqa-tilxat olmaydi yoki o'zining haqlaridan ma'lum bir haqini sizga berib uni saqlab turishingizni so'raydi. Siz yuqoridagi barcha ishlarda omonatni o'z egalari topshirishga buyurilgansiz. Bu siz va birodaringiz o'rtasidagi omonat. Uni ado etmog'ingiz vojibdir.

Mol, qarz, obro' yoki shunga o'xshash narsalarda sizga xiyonat qilib ketgan kishini siz ham unga xiyonat qilishlik bilan jazolamang. Balki, kechirib yuboring Alloh sizni go'zal mukofotlar bilan taqdirlaydi. Sizni afv etadi. Xiyonatchini esa agar qasddan-ataylab qilgan bo'lsa, xiyonati uchun jazolaydi. Ko'pincha u sizning bu muomalangizni ko'rib ham nadomat chekadi. Axir u sizga xiyonat qilgandiku! Balki sizni unga qilgan muomalangizni ko'rib uyalganidan haqqingizni qaytarib berishi ham mumkin.

INSONLARNING HAQLARI

Insonlarning haqlari; mollari, sirlari, obro'-e'tiborlari va shunga o'xshagan narsalari uchun albatta javob beradilar. Alloh huzurida shak-shubhasiz bu narsalar ustida savol-javob bo'ladi. shuning uchun ham Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam insonlarni haqlari haqida shunday dedilar:

*«Qiyomat kuni haqlar albatta o'z egalari topshiriladi. Hatto shohli qo'chqordan shohsiz qo'chqorga qasos olib beriladi (suzgani uchun)».*²⁵

²⁴ Abu Dovud va Termiziy rivoyati.

Bu insonlarning bir-birlari o'rtasidagi haqlarini ham o'z ichiga oladi. Kim biron narsa olgan yoki birovga zulm qilgan bo'lsa bu haqlar uchun albatta qasos olinadi. shuning uchun ham Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam ashoblaridan *«Muflis kimligini bilasizlarmi?»*- deb so'radilar. Muflis deb bizda na dirhami va biron narsasi bo'lgan kishiga aytiladi-deyishdi sahobalar.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: *«Mening ummatimdagi muflis Qiyomat kuni namozi, ro'zasi va zakoti bilan keladi. Lekin u bunisini so'kkan, unisiga tuhmat qilgan, birovning molini egan, boshqasining qonini to'kkan yana kimnidir urgan bo'ladi. Haligi kishining yaxshiliklaridan ularga olib beriladi. Agar yaxshiliklari to'lashga etmay qolsa ularning xatolaridan olib bunga qo'yiladi. So'ng do'zaxga tashlanadi»*.²⁶

Bu odamlarga va ularning haqlariga xiyonat qilgan kishining holidir Qiyomat kunida uning amallari tog'lardek bo'lsa ham, butunlay hech narsasiz bo'lib qoladi. Kimki xiyonat qilgan bo'lsa ularga uning yaxshi amallari bo'lib beriladi. O'ziga berilgan haqlar va omonatlarga xiyonat qilgan kishi Qiyomat kunida ularni shu tarzda to'laydi. Bu omonatlar kiyim-kechak, idish-tovoq kabi narsalar bo'lishi yoki muomala turlari hisoblangan: Qarzlar, garovga qo'yilgan narsalar va yoki boshqa ishonib topshirilgan omonatlar bo'lishi mumkin. Agar xiyonat etadigan bo'lsa Alloh huzurida turib xiyonatiga javob beradi-to'laydi.

OMONATGA XIYONAT QILISHNING BIR QANCHA

KO'RINISHLARI MAVJUD

1. Egasi ishlatishga ruxsat bermagan narsani ishlatishlik. Masalan kiyimini yoki poyafzalini kiyish, ulovni, mashinasini minishlik. shuningdek egasi sizga yashashga ruxsat barmagan, omonat qo'yilgan uyda yashashlik.

2. Omonatdan tonish.

Bu aniq bir kunda to'lanadigan omonatlarga xiyonat qilishlik. Ibn Kasir «Ahzob» surasining -oyatini tafsirida quyidagi mashhur hadisni Ibn Jarirdan, Abdulloh ibn Mas'uddan naql qiladi: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

Alloh yo'lidagi o'lim omonatdan boshqa barcha gunohlarni -yoki «barcha narsalarni»- kafforat qiladi ya'ni o'chiradi. Qiyomat kuni omonat qo'yilgan kishi

²⁵ Muslim rivoyati.

²⁶ Muslim rivoyati.

olib kelinadi «Omonatingni ber-ado qil, deyiladi. U: «Ey Robbim, axir qanday qilib beraman. Dunyo tugadi-ku?» deydi. Unga yana «Omonatingni ber-ado qil» deyiladi. U yana: «Ey Robbim. Axir qanday qilib beraman. Dunyo tugadi-ku?» deydi. Unga yana: «Omonatingni ber-ado qil deyiladi. U yana: «Ey Robbim! Axir qanday qilib beraman. Dunyo tugadi-ku?» deydi. So'ngra aytadi: Uni onasi Saviya (do'zax)ga olib boriglar. U onasi haviyaga olib boriladi va unga tashlanadi. Hatto do'zaxning qa'rigacha tushadi. U erda berilgan omonatni o'z holicha turganligini topadi. Uni olib elkasiga qo'yadi va jahannam labigacha ko'tarilib keladi. U endi chiqdim deganida qadami toyilib ketadi va omonat ortidan abadul-abad tushib ketadi».

Aytib o'tganimizdek insonlarning haqlari ustida albatta hisob-kitob va qasos bo'ladi. Qiyomat kunida qasosi tayin bo'lgan mana shu huquqlardan banda juda-juda ehtiyot bo'lmog'i lozim.

3. Badandagi yoki mol-mulkdagi foydani ketkazish.

a). Badandagi xiyonat:

Birovni kimsasiz joyda urib, boshini yorib yoki o'ldirib yana hech narsa ko'rmagandek yurish ham badanga qilingan xiyonatlardan. Bu yo'l hodisalarida ko'p uchraydi. Yo'lda boshqa hech kim bo'lmaganida yoki kishilar nazoratidan chet joyda o'z aybini yashirib ketishga urinadi. Jarohatlangan yoki o'ldirilgan kishi hayotdan haqqidan, foydalana olmaydi. Ammo Alloh ta'alo barcha narsani bilib turadi va xiyonat qilgan kishini Qiyomatda hisob-kitobga ro'para qiladi. Jabr ko'rgan birodariga uning yaxshiliklaridan olib beradi. Agar yaxshiliklari bo'lmasa jabrlangan kishining gunohlari unga qo'yiladi va do'zaxga tashlanadi.

b). Haq va mulklardagi xiyonat:

shunday kishilar borki birovdan narsa sotib oladi yoki qarz ko'taradi va buni rasmiy vasiqalarga tilxat yozishadi. Mabodo mol egasi yoki qarz beruvchi boshiga biron ish tushsa; deylik vasiqalari yonib ketsa yoki yo'qolib qolsa, bu ham inkor va tonib ketishga tayyor bo'lish uchun o'zidagi mol olganligi haqidagi vasiqalarni yo'qotishga shoshiladi. shu bilan haqiqatni butunlay yashiraman deb o'ylaydi. Lekin Alloh uni ko'rib turibdi. Qiyomatda undan birodarining haqini to'liq qilib olib beradi.

Agar inson bu haqni unutib qo'ygan bo'lsa, Alloh uni afv etadi. Haq egasi agar haqqidan voz kechsa kechib yuborgani uchun mukofotlar berardi. Kishi o'ziga xiyonat qilgan musulimga nisbatan ham yaxshi fikrda bo'lmog'i, uning

xiyonatiga xiyonat bilan javob bermasligi lozim. Musulmon kishi kishilar bilan chiroyli muomilada bo'lsin. Unga og'ir qilganlar yukini u engil qilsin, afv etsin, kechib yuborsin yoki undan ba'zi narsalarni engillashtirsin, shoyad Alloh uni ham kechirib yuborsa.

INSONNI OMONATDOR BO'LISHIGA YORDAM BERADIGAN

SABABLAR

Insonni omonatni ado etishga olib boradigan bir qancha sabablar bor. Ularning eng muhim va ulkanlarini qo'yida sanab o'tamiz:

1. Inson o'zini Allohning maxluqi ekanligini bilmoqligi. Maxluq Xoliqining quli bo'lganligi uchun o'zi va Parvardigori o'rtasidagi narsalarda haqlarni ado qilmog'i lozim.

2. Inson Alloh ta'aloning unga bergan ne'mat va fazlini va o'zining ne'matlarga burkanganini bilishi-anglab etishi lozim. Zero qulga Parvardigori tomonidan omonat qo'ygan haqni ado qilishdan bosh tortishi mumkin emas.

3. Mazkur omonatlar Alloh tarafidan unga farz qilinganini va bu farzlarni ado qilish shartligini his qilishi.

4. Insonning Parvardigori barcha narsani ko'rib-bilib turuvchi Zotligini, Undan hech narsa maxfiy bo'lmasligini va inson elkasidagi mazkur omonatlar ham shular jumlasidan bo'lib ularni ado etish shartligini his etishi.

5. Inson qachon-ki mana shu haqni bajarsa va bu omonatlarni xoh maxfiy bo'lsin, xoh oshkora bo'lsin, haqiqiy ado etsa, dunyo va Oxiratda ulkan ajru savobga ega bo'lishini tushinib etishi. Dunyoda beriladigan yaxshilik: Qalbining ochilishi xotirjamligi va Alloh uning rizqini keng-mo'l qilib qo'yishi. Oxiratda beriladigan yaxshilik: Uxroviy ajr bo'lgan ulkan savob.

Bu erda boshqa sabablar ham bor. Lekin biz bularni eng muhimlarini sanab o'tdik. Ammo siz ko'rib turgan ba'zi bir kishilar zimmalaridagi haqlarni ado qilmasliklari yoki uni chala ado qilishlari, Alloh harom etgan chegaralarni buzishlari qalblarida Allohni yaxshi tanimaganliklari yoki Alloh ne'matlarini to'liq his etmaganliklaridandir. Allohning Xoliq va Molik zotligini bilmaganliklaridir yoki jazo va mukofot beraman degan va'dasini tasdiq etmasliklaridir. yoki shunga o'hshash boshqa bir sabablar bo'ladi.

Diniy omonatlarga xiyonat qilayotgan kimsalar yoki ularning ado qilmayotganlari qalblarida iymonlari zaif bo'lgan kishilardir.

Biz Allohdan qalblarimizni O'zining toatida jamlashligini so'raymiz. Alloh ta'alo musulmonlarning qalblarini va kalimalarini bir qilsin! Ularni haqqa go'zal suratda qaytarsin. Ularga haqni haqiqiy ko'rsatib unga ergashishlikni, botilni botilligini ko'rsatib, undan uzoqlashishni nasib etsin. **Omiyn!**

Alloh ta'alo Muhammad sollallohu alayhi va sallamga, ahli oilasiga va ashoblariga salomlar yog'dirsin.